

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|  |       |
|--|-------|
| <i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i><br>RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT<br>HAYOTIDAGI O'RNI .....                  | 10-14 |
| <i>Azizbek Xolliyev</i><br>XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA<br>SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....                            | 15-20 |
| <i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i><br>SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN<br>O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....                   | 21-25 |
| <i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i><br>SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR<br>(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ..... | 26-31 |
| <i>Намазова Умида Нормурадовна</i><br>ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА<br>ХУСУСИЯТЛАРИ .....                                       | 32-41 |
| <i>Самадов Искандар Исматович</i><br>ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....   | 42-48 |
| <i>Rustamova Madina Musoqulovna</i><br>SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA<br>QO'SHGAN HISSASI .....                         | 49-56 |
| <i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i><br>SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..                                      | 57-64 |
| <i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i><br>MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY<br>TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....                       | 65-68 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|  |        |
|--|--------|
| <i>Tolipova Baxtigul</i><br>MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING<br>EKONOMETRIK TAHLILI .....                       | 69-77  |
| <i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....                      | 78-83  |
| <i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i><br>ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА<br>В УЗБЕКИСТАНЕ ..... | 84-96  |
| <i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i><br>INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....                                  | 97-104 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i><br>КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ<br>МАСАЛАЛАРИ .....  | 105-109 |
| <i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i><br>APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN<br>INVESTMENT FUNDS .....   | 110-120 |
| <i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i><br>MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI<br>ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....  | 121-129 |
| <i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i><br>ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT<br>INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....  | 130-138 |
| <i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i><br>AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....  | 139-144 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>   |         |
| <i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i><br>RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ<br>QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH<br>MEKANIZMLARI ..... | 145-155 |
| <i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i><br>GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING<br>TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....  | 156-161 |
| <i>Рахманов Баҳодир</i><br>АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК<br>ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....  | 162-170 |
| <i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i><br>ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ<br>ТАҲЛИЛИ .....  | 171-176 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>  |         |
| <i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i><br>KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....   | 177-184 |
| <i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i><br>ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....  | 185-190 |
| <i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i><br>“BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....  | 191-197 |
| <i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i><br>JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA<br>INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....  | 198-201 |
| <i>Tangriyev Valisher Azamovich</i><br>SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING<br>QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....   | 202-206 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Abulova Zilola Azimovna</i><br>INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN<br>IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....   | 207-201 |
| <i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i><br>TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....   | 210-216 |
| <i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i><br>ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....  | 217-221 |
| <i>Babajanova Aziza Rustamovna</i><br>ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....   | 222-227 |
| <i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i><br>REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH<br>DICTIONARIES .....   | 228-232 |
| <i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i><br>O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....  | 233-238 |
| <i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i><br>INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK<br>BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....  | 239-242 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>  |         |
| <i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i><br>AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ<br>РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ<br>ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....                | 243-252 |
| <i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i><br>INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN<br>BOG'LIQ JINOYATLAR .....   | 253-262 |
| <i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i><br>VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA<br>XOS XUSUSIYATLARI .....  | 263-266 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>  |         |
| <i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i><br>KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK<br>O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI<br>DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....              | 267-274 |
| <i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i><br>OLIY HARBIIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA<br>ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB<br>BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ..... | 275-281 |
| <i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i><br>BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH<br>IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....   | 282-292 |
| <i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i><br>BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....   | 293-301 |



|  |         |
|--|---------|
| <i>Алимова Нигора Исраиловна</i><br>ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ,<br>НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....  | 302-308 |
| <i>Матажонова Gulnoza Karimovna</i><br>IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB<br>MUAMMOLARI .....  | 309-313 |
| <i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i><br>GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....  | 314-319 |
| <i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i><br>OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI<br>YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....   | 320-323 |
| <i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i><br>QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI<br>TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....  | 324-329 |
| <i>Юсупова Заррина Курбоновна</i><br>УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ<br>ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....   | 330-334 |
| <i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i><br>МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH<br>KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....                                      | 335-340 |
| <i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i><br>GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....   | 341-345 |
| <i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK<br>MUAMMO SIFATIDA .....   | 346-351 |
| <i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i><br>TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY<br>RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....   | 348-356 |
| <i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i><br>TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA<br>INNOVATSION JIHATLARI .....  | 357-362 |
| <i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i><br>ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND<br>EFFICIENCY .....   | 363-388 |
| <i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i><br>BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY<br>HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI<br>RIVOJLANTIRISH USULLARI..... | 389-393 |
| <i>Maxliyo Qalandarova</i><br>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY<br>SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....                                     | 394-399 |

**Received:** 30 August 2024  
**Accepted:** 5 September 2024  
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **TECHNOLOGIES FOR CREATING NEW GENERATION TEXTBOOKS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF CEFR CRITERIA**

**Norboev Zafar Abdumuminovich**

Uzbekistan State University of World Languages,

**E-mail:** [z.norboyev88@gmail.com](mailto:z.norboyev88@gmail.com)

**Abstract.** The purpose of this study is to create modern textbooks based on the CEFR criteria for teaching Arabic in higher education institutions in the field of philology. We suggested that in the formation of textbook creation technology, it is necessary to analyze the textbooks created so far, analyze the shortcomings listed by scientific researchers, and take into account the requirements for creating a textbook. The principle of adapting the CEFR criteria to the cultural environment was taken as the main principle.

**Key words:** CEFR, modern textbook, integration, illustration, A1, A2, B1, B2, C1, C2.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI**

**Norboyev Zafar Abdumuminovich**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotning maqsadi filologiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida arab tilini o'qitishda CEFR mezonlari asosida zamonaviy darsliklar yaratishdir. Darslik yaratish texnologiyasini shakllantirishda shu kunga qadar yaratilgan darsliklarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan sanab o'tilgan kamchiliklarni tahlil qilish, darslik yaratish bo'yicha qo'yilgan talablarni hisobga olish kerakligini ilgari surdik. CEFR mezonlarini madaniy muhitga moslash prinsipi asosiy tamoyil sifatida olindi.

**Kalit so'zlar:** CEFR, zamonaviy darslik, integratsiya, illyustratsiya, A1, A2, B1, B2, C1, C2.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N43>

**Kirish.** Mazkur maqolada yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida arab tilini xorijiy til sifatida o'qitishning umumiy holati, talabalarga arab tilini o'rgatishda foydalanilayotgan o'quv materiallari, ularning tarkibiy tuzilishi, CEFR mezonlari va u asosida yaratilgan zamonaviy darsliklar haqida fikr va mulohazalar bildirilgan. Xorijiy tillarni o'rganiashda CEFR mezonlari asosida o'rganish va CEFR mezonlari asosida zamonaviy darsliklar yaratish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib, keng tadqiq etilayotgan bo'lsada, hozirgi kunga qadar O'zbekistonda CEFR mezonlarini to'liq o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy darsliklar mavjud emas.

Taqdim etilayotgan maqola hozirgi kunda O'zbekistonda arab tilini o'qitish va o'rganishda yangi avlod darsliklarini yaratishga bo'lgan talabning kundan-kunga o'sib borishi,

oliy ta'lim muassasalarida filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning CEFR imtixonlariga tayyorgarlik ko'rishida CEFR mezonlariga asoslangan zamonaviy milliy o'quv materiallarini yaratishga ehtiyoj katta ekanligi jarayoni bilan ushbu muommolarni nazariy o'rganishga asos bo'ldi. Bundan tashqari, arab tilini o'qitishda oliy ta'lim muassasalarida CEFR mezonlari asosida zamonaviy darsliklar yaratish bo'yicha talabdan kelib chiqqan holda ushbu masala ilk marotaba kun tartibiga qo'yilishi arab tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan o'zbek yoshlarimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Hozirgi kunga qadar CEFR mezonlari, uning xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha tillarga integratsiya qilinishi, xorijiy tillarni CEFR mezonlari asosida o'qitishda vujudga kelayotgan muommolar va ularning yechimlari, o'quv adabiyotlari, xususan, zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, ularning mazmun va kontentini boyitish mavzusida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlar natijasida arab tilini xorijiy til yoki ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha zamonaviy darsliklar ishlab chiqildi.

Abdurahman bin Ibrohim Al-Favzan, Muxtor Toxir Husayn, Muhammad Abdulxoliq Muhammad Fadllar ham muallifligida tayyorlangan "Al-Arabiyya Bayna Yadayk" nomli kitob uzoq yillar davomida arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda asosiy darslik vazifasini bajardi. Darslik uch kitobdan iborat va har bir kitob CEFR mezonlari asosida daraja mavzularini ketma-ket o'z ichiga olgan. A. Ali va M. Iso o'zlarining tadqiqotlarida darslik mazmuni ko'plab xalqaro baholash standartlariga mos kelishini ta'kidlab o'tdi. Lekin, uning madaniy mazmuniga ba'zi illyustratsiya va o'zgartirishlar kiritish zarurligini qo'shimcha qilib o'tdi.

Al-Mustafa Lahlalining "Advanced Media Arabic" darslik kitobi bir necha bor qayta nashr qilingan bo'lsada, muntazam ravishda turli xil media manbalaridan haqiqiy matnlar va audio fayllarni taqdim etadi. Darslik o'quvchilarda arab tilida tahliliy va tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'qish, yozish, tinglash va gapirish qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. B. Chik, A. Farha va A. Rahmonlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida "Advanced Media Arabic" darslik kitobining ayrim kamchiliklarini sanab o'tdi. Unga ko'ra, darslikda har bir bo'lim uchun o'qituvchilarga zarur bo'lgan ko'rsatmalar va vaqt miqdori berilmaganligi, arab xattotligi turlarini o'ragatishga mo'ljallanmaganligini, arab va islom madaniyatini farqlovchi illyustratsiyalar mavjud emasligi kabi kamchiliklarini sanab o'tgan.

Sobir Al-Mashrafiy, Suad Al-Xovaliy, Abu Uvays Maxmudlar tomonidan yozilgan "At-Takallum" nomli darslik ham hozirgi kunda arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda eng ommalashgan qo'llanmalardan biri hisobalandi. Darslik CEFR mezonlarining asosiy qismini qamrab olgan holda beshta til bilish daraja A0, A1, A2, B1, B2larga moslashgan darsliklarga bo'lingan holda arab tilini o'rgatishga mo'ljallangan. Darslik o'qituvchilar uchun alohida ishlab chiqilgan va o'quvchilar uchun o'zlari uyda mustaqil mashqlar va matnlarni ustida ishlash uchun alohida ishlab chiqilgan. Darslikdagi mavzularni mustahkalashga qaratilgan mashqlar to'plami juda sodda berilgan.

Suvayfiy Fatxiyning "Al-Manxaju Al-Alamiyyu" darslik kitobini ham CEFR mezonlari asosida yaratilgan zamonaviy darsliklardan biri sifatida sanab o'tishimiz mumkin. Darslik CEFRning beshta darajasini qamrab olgan. A1, A2 darajalari kitobi boshlang'ich foydalanuvchilar uchun belgilangan, B1, B2 darajalari kitobi mustaqil foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. Darslikda mavzularni o'rganish uchun yangi so'zlar miqdori juda kam foizda

berilgan. Shuningdek o'quvchining gapirish ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlar to'plami kam berilgan.

Arab tili mutaxassislariga ma'lumki, hozirgi kunga qadar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida arab tilini o'qitish bo'yicha darsliklarni juda ko'p sanab o'tishimiz mumkin. M. Xasanovning "Arab tili", E. Talabovning "Arab tili", A. Abdujabborovning "Arab tili", N. Ibrohimov, M. Yusupovlarning "Arab tili grammatikasi 1" va "Arab tili grammatikasi 2" darsliklari uzoq yillar oliy o'quv yurtlarida asosiy darslik kitobi sifatida foydalanilgan. Bu darslik kitoblar talabalarning leksik, tarjima va grammatik qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin, lekin CEFR mezonlari asosida talabaning eshitish, yozish, o'qish va gapirish qobiliyatlarini parallel ravishda rivojlantirishga qaratilmagan edi. Doktor Ubayd Muhammad Abduhalimning "Al-Kamil A1, A2, B1, B2" kitoblari arab tilini CEFR mezonlari asosida oliy o'quv yurtlarida xorijiy til sifatida o'qitishda eng asosiy darslik sifatida foydalanilmoqda. Lekin darslik kitobining to'liq CEFR mezonlari va deskriptorlarini qamrab olgan deya olmaymiz.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** So'ngi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning barcha sohalarida rivojlangan davlatlarning yo'lidan borishini belgilab bermoqda. Shu o'rinda yo'nalishlar bo'yicha yetuk, teran fikrlovchi va xalqaro talablarga mos kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagilarni hisobga olib mamlakatimizda keyingi yillarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlarining ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilib borilishi va xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish tizimini zamonaviy tajribalarga mos ravishda takomillashtirilib borilishi bo'yicha keng ko'lamli amalga oshirilayotgan ishlarni islohotlarning asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida sanab o'tishimiz mumkin.

Mamlakatimiz ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rgatishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish nazarda tutilgan. Xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb qilish, yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'quv materiallarining o'rni beqiyosdir. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarni yangi avlod darsliklari bilan ta'minlash yildan-yilga jahon tajribasiga asoslangan holda amalga oshirilib kelinmoqda. Shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda zamonaviy yangi avlod darsliklari muhim rol o'ynaydi. Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ingliz, fransuz, nemis, rus, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dariy, urdu, hind va malay tillarini o'rganib kelmoqda. Demak, yuqorida sanab o'tilgan tillar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish muhim vazifa sifatida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning o'zlariga belgilab olishlari kerak. Xorijiy tillar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratishda til kompetensiyalaridan tashqari mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini, milliy-madaniy marosimlarini ham e'tiborga olish eng muhim qism hisoblanadi.

Yurtimiz oliy ta'lim muassasalari orasida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Andijon davlat chet tillari instituti, Namangan davlat chet tillari instituti va Samarqand davlat chet tillari institutlarida filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) va tarjima nazariyasi va amaliyoti (arab tili) ta'lim yo'nalishlarida talabalar arab tilini asosiy xorijiy tili sifatida

o'rganmoqda. Shuningdek, yurtimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) va tarix ta'lim yo'nalishi talabalari arab tilini xorijiy til sifatida o'rganmoqda. Bundan kelib chiqadi-ki, hozirgi kunda zamonaviy ta'lim yo'nalishlarida har tomonlama yetuk, zamonaviy fikrlovchi kadrlar tayyorlashda yangi avlod darsliklarining o'ri beqiyosdir.

#### **Muhokama va natijalar:**

1. Arab tilida CEFR mezonlari asosida zamonaviy darslik yaratishda arab til ko'nikmalaridan tashqari, soha bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar, jahon ilm-fani, uslubiyot, texnika va texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini hisobga olishi kerak.

2. Darslik mazmuni ta'lim olish, mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini talabalarda shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3. CEFR mezonlari asosida zamonaviy darslikni CEFR o'zlashtirishining 6 darajasiga (A1, A2, B1, B2, C1, C2) alohida-alohida yaratish.

4. Arab tilining o'ziga xos murakkablik jihatlarini hisobga olib CEFR o'zlashtirishining A2+ va B2+ darajalariga qo'shimcha qo'llanma yaratish zaruriyatining mavjudligi.

5. Daraja o'zlashtirish kitoblarini yaratishda arab tilida talabaning leksik qobilyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratuvchi mashqlar to'plamini kiritish.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi kunda O'zbekiston hududida arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan-yilga oshib bormoqda. Til o'rganish qiziqishida bo'lganlarning yosh chegarasi, ularning tilni o'rganishdan maqsadi va ijtimoiy toifasi turli xil bo'lsa ham, oxirgi nashr qilinayotgan zamonaviy darsliklar bu xilma-xilliklarni to'g'ri hisobga olmoqda. CEFR ma'lumotnomasi dastlab boshqa maqsadni ko'zlab ta'sis etilishi nazarda tutilgan bo'lsada, keyinchalik ta'limga tadbiiq etilishi va xorijiy tillarni o'rganishga to'liq integratsiya qilinishi o'zini oqlagani uchun juda ko'p xorijiy tillarni o'qitishda qo'l kelganligi sababli CEFR ma'lumotnomasi o'sha tillarga to'liq tarjima qilindi.

Arab tiliga CEFR mezonlarining kiritilishi tilni faqat tarjima yoki o'qish maqsadida o'rganishdan tashqari bu tilda eshitish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini bir xil shakllantirib borish zaruriyatini ko'rsatib berdi. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida Davlat Ta'lim Standartlariga asoslangan holda xorijiy tillarni o'rganishda belgilab berilgan darajalar ketma-ketligini buzmaganda egallash uchun milliy an'analarimiz, urf-odatlar va ma'daniyatimizga mos talabalar bilan boyitilgan zamonaviy darsliklar asosida amalga oshirilishini alohida sanab o'tishimiz kerak.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages:
2. Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg. 2001.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales.
4. Ayoob Y. Jadwat. Teaching of Arabic as a foreign language (TAFL): A study of the communicative approach in relation to Arabic. A thesis submitted for the degree of PhD. Bibliotheca universitates Andreane. 1987 y.
5. S. Mohamed. The development of an Arabic curriculum framework based on a compilation of salient features from CEFR level descriptors. *The Language Learning Journal. Volume-5, 2023 – Issue 1.*

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).